

chiqib ketish bo'yicha xizmatlarning sifati belgilangan me'yorlarga nomuvofiqligi;

**yirik gabaritli maishiy chiqindilar** –jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan mebellar, maishiy texnikalar (sovutkichlar, kir yuvish mashinalari, televizorlar va shu kabilar), tashkiliy texnikalar (kompyuterlar, printerlar va shu kabilar), texnik uskunalar, avtotransport vositalarini almashtirish natijasida hosil bo'ladigan qattiq maishiy chiqindilar, shuningdek, daraxt va butalarni kesish hamda agrotexnik ishlov berishda hosil bo'ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, kesish ishlari qoldiqlari, barglar va boshqalar) va o'lchamlari bo'yicha 0,75 kub. metr hajmli konteynerlarga joylashtirishning imkoni bo'lmagan qurilish chiqindilari.

## **2-bob. Shartnoma mavzusi**

2. Quyidagilar Shartnoma mavzusi hisoblanadi:

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun maxsus ajratilgan maydonlar (chiqindi to'plash shoxobchalaridan) va yakka tartibdagi turar joy sektoridan "signal" usulida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha pullik xizmatlar ko'rsatish;

Iste'molchi tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar haqini to'lanishi.

Iste'molchi:

ko'p kvartirali uylarda – qattiq maishiy chiqindilarni chiqindi to'plash shoxobchalariga joylashtirishda konteynerlarga tashlaydi;

yakka tartibdagi turar joy sektorida – qattiq maishiy chiqindilarni maxsus avtotransport vositasi "signal" usulida, jadval bo'yicha kelguniga qadar o'z hududida saqlaydi va maxsus avtotransport vositasiga joylashtiradi.

3. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan quyidagi chiqindilarni olib chiqib ketish kelishilgan narxlarda alohida to'lov evaziga amalga oshiriladi:

sanoat chiqindilari;

suyuq maishiy chiqindilar;

yirik gabaritli maishiy chiqindilar; qurilish

chiqindilari va tuproq; tibbiyot chiqindilari;

zaharli-kimyoviy chiqindilar; chorvachilik chiqindilari.

4. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xizmat ko'rsatish zonasida Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning davriyligi aholi yashash punktlari, shaharning sanitariya holati ta'minlanishini va kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar rivojlanishining oldini olish sharoitlarini hisobga olgan holda, joylardagi iqlim sharoitlardan kelib chiqib, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi, bunda sanitariya me'yorlari va qoidalariga muvofiq maishiy chiqindilarni saqlashning cheklangan muddati o'tib ketmasligi lozim.

Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligi chiqindi to'plash shoxobchalaridan — bir kunda bir marotaba va yakka tartibdagi turar joy sektoridan "signal" usulida — uch kunda bir marotabani tashkil qiladi.

Qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvali fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan kelishilgan holda belgilanadi, bunda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq maishiy chiqindilarni saqlashning cheklangan muddati o'tib ketmasligi lozim.

5. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish Qoidalar va Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatishga davlat- xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim (shartnoma)larga muvofiq amalga oshiriladi.

Agar mazkur shartnomada iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida va (yoki) boshqa qonunchilikda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi qoidalari qo'llaniladi.

## **3-bob. Iste'molchining huquq va majburiyatlari**

6. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

Shartnomaga muvofiq zarur ko'lamda, belgilangan sifatta, uning hayoti va

salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar yetkazmaydigan xizmatlardan foydalanish;

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishning minimal davriyligiga hamda tasdiqlangan yo'nalish jadvaliga rioya etilishini talab qilish;

o'n ikki oydan ortiq bo'lmagan davr uchun oldindan haq to'lash, keyinchalik tegishli tariflar oshganda qaytadan hisob-kitob qilmaslik;

Xizmat ko'rsatuvchidan xizmat ko'rsatishning amaldagi tartibi, talablari, qoidalari va o'zgarishlar to'g'risidagi, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar tariflari to'g'risida ma'lumot olish;

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvaliga rioya qilinmagan hollarda Xizmat ko'rsatuvchining operativ tartibda qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish choralarini ko'rishi lozim bo'lgan dispetcherlik xizmatiga

**71-228-18-87, 71-248-51-70** telefon raqam(lar)i orqali buyurtmanoma berish;

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan Shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan holatlarda hamda chiqindi xizmatlari uchun to'lovlarni hisoblashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar oqibatida elektr energiyasi uchun to'lovlarni qabul qilishni vaqtinchalik cheklash amaliyoti qo'llanishi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berish bo'yicha Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga yozma, elektron yoki og'zaki shaklda murojaat qilish va Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotdan xizmatlar to'liq ko'rsatilmaganligi yoki tegishli bo'lmagan sifatidagi xizmatlar ko'rsatilganligi holatini tasdiqlovchi dalolatnomani tuzishni, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan to'lovlarni hisoblashda yo'l qo'yilgan kamchilik va xatoliklar natijasida yetkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

xizmatlar ko'rsatilayotganda Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot aybi bilan yuzaga kelgan kamchiliklarning bepul bartaraf etilishini talab qilish;

doimiy yashash joyida vaqtincha bo'lmaganligining hujjatlar bilan tasdiqlangan davr yoki Shartnomada belgilangan tartibda xizmatlar ko'rsatilmagan davr uchun qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlarga haq to'lash majburiyatlari qayta hisob-kitob qilinadi;

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha sifatsiz xizmat ko'rsatilganligi sababli, agar Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot o'z vaqtida Shartnomani bajarishga kirishmasa yoki sifatsiz xizmat ko'rsatsa, zararlar undirilishini talab qilib sudga murojaat qilish.

Iste'molchi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni Shartnomada belgilangan muddatlarda o'z vaqtida va to'liq miqdorda to'lash;

konteynerda to'plash tizimida – chiqindi to'plash shoxobchalarida chiqindilarni joylashtirishda chiqindilarni konteynerlarga tashlash;

to'plashning "signal" usulida – qattiq maishiy chiqindilarni o'z uylarida saqlash va Xizmat ko'rsatuvchining qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish jadvali bo'yicha yetib kelgan maxsus avtotransport vositasiga joylashtirish;

maishiy chiqindilarni ruxsat etilmagan joylarga va ob'ektlarga tashlamaslik hamda joylashtirmaslik (ko'chalarga, suv yo'llariga, ariq va maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mish uchun belgilanmagan boshqa joylarga, shu jumladan, avtotransport vositalaridan ularning to'xtashi, to'xtab turishi yoki harakatlanishi vaqtida);

qattiq maishiy chiqindilarni ularni joylashtirish ob'ektlarida (idishlar, yer o'ralari va hokazolar) va xizmat ko'rsatish zonasining boshqa joylarida yoqmaslik;

ko'p kvartirali uyning umumiy foydalanishdagi joylarida qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va saqlash joylari tashkil etilishiga yo'l qo'yimaslik;

maishiy chiqindilarni maxsus avtotransport vositasiga ortish uchun Xizmat ko'rsatuvchining ortish joyiga bema'lol o'tishini ta'minlash;

chiqindi to'plash konteynerlari, chiqindi to'plash shoxobchalari, chiqindi to'plash kameralari va

rioya qilinmagan holatlarda Iste'molchining Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning dispetcherlik xizmatiga tushgan buyurtmanomalarini operativ tartibda (buyurtmanoma kelib tushgan kundan boshlab bir ish kunidan kechikmay) bajarish va bu haqida Iste'molchini ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifa/kanallari orqali xabardor qilish;

ko'rsatilayotgan qo'shimcha xizmatlar uchun elektron to'lov tizimini joriy etish;  
iste'molchilarning ma'lumotlar bazasini yuritish va muntazam ravishda yangilab borish; qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning rejimi va sifati bo'yicha iste'molchilarning murojaatlari, shuningdek, ularning ijrosi hisobini olib borish;

aholining to'liq qamrab olinishini ta'minlovchi va qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq zarur miqdordagi chiqindi to'plash shoxobchalarining qurilishini amalga oshirish;

chiqindi to'plash shoxobchalari va konteynerlarning holatini nazorat qilib borish hamda ularning tegishli holatda saqlanishini ta'minlash;

chiqindi to'plash shoxobchalarining qattiq maishiy chiqindilarni to'plash uchun zarur miqdordagi konteynerlar bilan jihozlanishini ta'minlash;

chiqindi to'plash shoxobchalari va transport vositalarining zarur tarzdagi sanitariya holatini ta'minlash;

maishiy chiqindilarni mustaqil ravishda saralashni amalga oshirishni ta'minlash; chiqindi to'plash shoxobchalarini joriy va mukammal ta'mirlashni amalga oshirish;

fuqarolarning hayoti va salomatligi, atrof muhit uchun xavfli bo'lgan bakteriyalarning va boshqa zararli moddalarning rivojlanishiga, chiqindilarning ko'plab to'planib qolishiga qarshi rejali ishlarni olib borish (konteyner va chiqindi to'plash shoxobchalarini dezinfeksiyalash yoki yuvib turish yo'li bilan va shu kabilar);

qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning tartibi va tariflarining o'zgarganligi to'g'risida ushbu tariflar kuchga kirishidan o'n besh kun avval Xizmat ko'rsatuvchining stendida, e'lonlar taxtasida e'lonlar osish yo'li bilan, shuningdek, rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifa/kanallari va ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchini xabardor qilish;

Iste'molchilarga ularning so'roviga asosan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar ko'rsatishning amaldagi tartibi, talablari, qoidalari va xizmatlar ko'rsatish tartibining, shuningdek, qarzdorlik va haqdorlik, tariflarining o'zgarganligi to'g'risida bepul ma'lum qilish;

qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda buzilgan yer uchastkalarini qayta tiklash ishlarini amalga oshirish;

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning rasmiy veb-saytida, stendida, mahalla fuqarolari yig'inlari binolarida, e'lonlar taxtasida, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifa/kanallari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlar, ularning amaldagi tariflari, to'lov shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish jadvali, maishiy chiqindilarni to'plash va Shartnomani joylashtirish;

Iste'molchiga maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarning sifati bo'yicha aniqlangan xizmatning nuqsoni va boshqa kamchiliklarni bartaraf etish va yangi xizmatning nuqsoni va boshqa kamchiliklarning oldini olish choralarini ko'rish, shuningdek, Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmaganligi, to'lovlarni hisoblashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun Iste'molchiga yetkazilgan zararni qoplash;

maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq ma'lumotlar va buxgalteriya hujjatlari besh yil mobaynida but holatda saqlanishini ta'minlash;

xizmatlar uchun to'lovlarni qabul qilish hamda iste'molchilar hisobini yuritishni faqatgina Agentlikning billing tizimi, elektron to'lov tizimlari yoki tijorat banklarining to'lov qabul qilish kassalari orqali amalga oshirish;

xizmatlar uchun oylik to'lovlardan qarzdorligi bo'lgan Iste'molchini SMS orqali xabardor qilib borish;

chiqindilarni tashish bilan shug'ullanuvchi barcha maxsus texnikalarga o'z mablag'lari hisobidan onlayn kuzatuv (GPS) tizimini o'rnatish va bu orqali chiqindilarning belgilangan grafik va muddatlarga muvofiq olib chiqib ketilishini Iste'molchi tomonidan kuzatish imkoniyatini yaratish.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

### **5-bob. Hisob-kitob qilish tartibi va shartlari**

10. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar majburiy hisoblanadi.

11. Qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan to'lov amalga oshirilayotgan, o'tgan oydan keyingi oyning o'ninchi sanasidan kechikmay Agentlikning maxsus tranzit bank hisobvaraqlariga to'lanadi va keyinchalik ko'rsatilgan xizmatlar haqini markazlashgan tartibda Agentlik tomonidan to'lov topshiriqnomalarisiz avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

Bunda, 2025-yil 1-iyuldan boshlab respublikada maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-noyabrda PF-5580-son Farmoniga asosan maishiy chiqindilarni boshqarish va to'lov intizomini mustahkamlash bo'yicha joriy etilgan ikki bosqichli yangi tizim asosida amalga oshiriladi.

Yirik gabaritli maishiy chiqindilar, qurilish chiqindilari, suyuq maishiy chiqindilar, sanoat chiqindilar, tibbiyot chiqindilar, zaharli-kimyoviy chiqindilar va chorvachilik chiqindilarini olib chiqish bo'yicha alohida xizmatlar uchun to'lovlar bevosita Xizmat ko'rsatuvchining bank hisob raqamiga 100 foiz oldindan to'lov asosida amalga oshiriladi.

Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lov jismoniy shaxslarning ixtiyoriga ko'ra cheklanmagan holda faqatgina Agentlikning billing tizimi, elektron to'lov tizimlari yoki tijorat banklarining to'lov qabul qilish kassalari orqali amalga oshiriladi.

12. To'lovni hisoblash tegishli davrlarda amalda bo'lgan qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun tariflar bo'yicha amalga oshiriladi.

Qattiq maishiy chiqindilarni (Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan kelishilgan narxlarda amalga oshiriladigan alohida xizmatlar uchun to'lovlar bundan mustasno) olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun to'lov tariflari Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlarining qarorlari bilan tasdiqlanadi.

13. Iste'molchi bo'nak (avans) tariqasida to'langan to'lovlar uchun, ushbu davrda tegishli tariflar oshgan taqdirda, to'lov amalga oshirilgan sanadan o'n ikki oydan oshmaydigan davrga qayta hisob-kitob qilishdan ozod etiladi.

14. Maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlarning qayta hisob-kitobi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

15. Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganda yoki xizmat ko'rsatilmagan taqdirda belgilangan tartibda Iste'molchi tegishli davr uchun to'lovlardan ozod etiladi.

16. Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilmagan yoki tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganligi (xizmatning nuqsoni) fakti aniqlangan holatlarda, Iste'molchi, Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning vakili, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakili tomonidan imzolanadigan, xizmatlar ko'rsatilmaganligi yoki tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganligi holatini tasdiqlovchi dalolatnoma tuziladi.

Xizmatlar ko'rsatilmaganligi yoki tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganligi (xizmatning nuqsoni) to'g'risida tuzilgan dalolatnoma maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlar miqdorini qayta hisob-kitob qilish uchun asos hisoblanadi, shuningdek, Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatishga davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitim yoki Maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari ko'rsatishga tuzilgan shartnoma shartlariga muvofiq baholashda inobatga olinadi.

Dalolatnoma Iste'molchi, Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakillarining imzolari bo'lgandagina haqiqiy hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning vakili kelmagan taqdirda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakilining imzosi yetarli hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotning vakili dalolatnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda u ushbu dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortganlik sabablarini dalolatnoma tuzilgan kunning o'zida yozma ravishda asoslashi shart. Aks holda Iste'molchi maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlarni sud qarori qabul qilunguniga qadar to'xtatishga haqlidir.

Iste'molchiga maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha aslida ko'rsatilmagan xizmatlar bo'yicha majburiy to'lovlar hisoblanganligi fakti aniqlangan holatlarda "mahalla yettiligi" tomonidan ushbu hisoblangan majburiy to'lovlarni hisobga olmaslik to'g'risida dalolatnoma tuzilib, Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot va Agentlikning tegishli hududiy bo'linmasiga yuboriladi.

"Mahalla yettiligi" tomonidan tuzilgan dalolatnomaga muvofiq Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan Hisobga olishning yagona elektron tizimida aslida ko'rsatilmagan xizmatlar bo'yicha hisoblangan majburiy to'lovlar miqdori qayta hisob-kitob qilinadi, bunda Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan xizmat ko'rsatish zonasidagi iste'molchilarga xizmat ko'rsatilishi yo'lga qo'yilgunga qadar Agentlikning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan majburiy to'lovlarni hisoblash to'xtatib turiladi.

17. Iste'molchilar bo'yicha o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarga kiritilmagan va ular haqida Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotga taqdim etilmagan yangi iste'molchilar yoki birga doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lmagan shaxslar aniqlanganda, Hisobga olishning yagona elektron tizimida iste'molchilar va birga doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan shaxslar soniga tuzatishlar kiritiladi.

Bir vaqtning o'zida, tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lganda (fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi yoki Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xodimi tomonidan tuzilgan dalolatnoma, ichki ishlar organlari tomonidan doimiy yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligining tasdig'i, chegara (migratsiya) qaydlari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi (FHDYo)ning tug'ilganlikni qayd etish to'g'risidagi va boshqa ma'lumotlar), qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmatlari uchun majburiy to'lovlar bo'yicha qarzdorlik, haqiqatda doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatga olingan shaxslar soni ortgan yoki kamaygan (ko'chib kirish, ko'chib ketish, tug'ilish va shu kabilar) vaqtdan boshlab to'liq qayta hisoblab chiqiladi, tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan holatlarda esa – o'tgan uch oy uchun hisob-kitob qilinadi.

#### **6-bob. Iste'molchining javobgarligi**

18. Iste'molchi quyidagilar uchun javob beradi:

Shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik;

qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqish bo'yicha xizmatlar uchun to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik;

qattiq maishiy chiqindilarni belgilangan joyga tashlamaganlik.

19. Mablag'lar o'z vaqtida o'tkazilmagan taqdirda muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun qarzdorlik summasining 0,1 foizi miqdorida, biroq qarzdorlik umumiy summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya undiriladi.

#### **7-bob. Xizmat ko'rsatuvchining javobgarligi**

20. Xizmat ko'rsatuvchi tashkilot quyidagilar uchun javob beradi: Shartnoma

majburiyatlarini bajarmaslik yoki zarur tarzda bajarmaslik;

maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar muddatining va ushbu xizmatlar ko'rsatilayotganda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatlarining buzilishi;

xizmat ko'rsatmaslik yoki sifatsiz ko'rsatilgan xizmatlar natijasida Iste'molchining hayoti,